PSIXOLOGIYADA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR TUSHUNCHASINING ILMIY MOHIYATI

Rahimova Sarvinoz Odilboy qizi
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Sar_rah94@mail.ru

Annotatsiya. *Mazkur maqolada psixologiyada prosotsial xulq-atvor tushunchasining ilmiy-nazariy mohiyati, uning shakllanishi va rivojlanishini tushuntiruvchi asosiy psixologik yondashuvlar tahlil qilingan. Prosotsial xulqning shaxs, guruh va jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish hamda shaxsning ijtimoiylashuvidagi ahamiyati yoritilgan. Prosotsial xulq-atvorning biologik va sotsiobiologik asoslari, qarindoshlar tanlovi hamda o‘zaro altruizm nazariyalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, prosotsial xulqni shaxsning individual xususiyatlari, emotsional holatlari, ijtimoiy o‘rganish jarayonlari va altruistik motivlar bilan bog‘liq holda izohlovchi qarashlar tahlil etilgan.*

Kalit so‘zlar: *prosotsial xulq-atvor, prosotsial xulq, altruizm, yordam berish, empatiya, ijtimoiy xulq, sotsiobiologik yondashuv, shaxsiy yondashuv, qarindoshlar tanlovi, o‘zaro altruizm, ijtimoiy o‘rganish, altruistik motivlar.*

Abstract. *This article examines the scientific and theoretical essence of the concept of prosocial behavior in psychology and analyzes the main psychological approaches explaining its formation and development. The role of prosocial behavior in the life of individuals, groups, and society, as well as its significance in regulating social relationships and facilitating individual socialization, is discussed. The biological and sociobiological foundations of prosocial behavior, including kin selection and reciprocal altruism theories, are considered. The article also analyzes approaches that explain prosocial behavior in terms of individual characteristics, emotional states, social learning processes, and altruistic motives.*

Keywords: *prosocial behavior, prosocial conduct, altruism, helping behavior, empathy, social behavior, sociobiological approach, personal approach, kin selection, reciprocal altruism, social learning, altruistic motives.*

Bugungi kunda shaxsning ijtimoiy muhit bilan samarali munosabatga kirishishi, o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minlovchi xulq-atvor shakllarini o‘rganish psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida

namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, boshqa insonlarga yordam berish, hamkorlik qilish, qo‘llab-quvvatlash va manfaatlarini hisobga olish kabi xatti-harakatlarda ifodalanadigan prosotsial xulq-atvorning psixologik mohiyatini tadqiq etish shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning mazmunini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Bizningcha, so‘nggi vaqtlarda prosotsial xulq psixologiyasini o‘rganish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa uning tarixiy rivojlanish jarayonida gender, agressiv va boshqa xulq turlari bilan bir qatorda eng dastlabki ijtimoiy xulq shakllaridan biri sifatida shakllanganligi bilan bog‘liq. Shu bilan birga, u ichki va guruhlararo munosabatlarni tartibga soluvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini, umuman olganda, sotsiumning va alohida shaxsning shakllanishini ta’minlaydi (K.A.Abulxanova-Slavskaya, S.K.Nartova-Bochaver, K.D.Batson, N.Eizenberg, P.R.Shaver, M.Mikulinler, K.Hill).

Ilm-fanda prosotsial xulqning asosida nimalar yotishi haqidagi savol ko‘p jihatdan biologik, shaxsiy, shaxslararo, ijtimoiy tizimlar darajasidagi tahlil yondashuvlariga bog‘liq bo’ladi. Mazkur savolga javob topish turli psixologik yondashuv va qarashlarga ega bo’lgan tadqiqotchilarni qiziqtirib keladi. Ammo ularning hech biri ushbu fenomenga to‘liq va mukammal izoh bermaydi, biroq har biri ushbu muammoning mohiyati va ehtimoliy tabiati haqidagi tasavvurlarni chuqurlashtirishga o‘z hissasini qo‘shadi [Реан и др., 2026: 92–94].

Sotsiobiologik yondashuv prosotsial xulqni tug‘ma yoki genetik moyilliklar nuqtayi nazaridan tushuntiradi. Prosotsial xulq tabiiy tanlanish natijasi sifatida qaraladi, chunki u individning nasl qoldirish ehtimolini oshiradi [Реан и др., 2026: 94–95]. “Tabiiy tanlanish jarayoni qanday qilib boshqalarga yordam berishga moyillikni oshiruvchi genning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin?” savoliga agar u individning (yoki uning qarindoshlarining) nasl qoldirish imkoniyatlarini kamaytirishdan ko‘ra ko‘proq oshirsa, prosotsial xulq tabiiy tanlanish natijasi deb hisoblanishi mumkin, deya javob beriladi [Eisenberg, Mussen, 1989: 8–12].

Prosotsial xulq rivojlanishiga ikki umumiy jarayon yordam berishi mumkin: qarindoshlar tanlovi va o‘zaro altruizm nazariyasi.

Qarindoshlar tanlovi (individning reproduktiv muvaffaqiyati hamda uning qarindoshlarining reproduktiv muvaffaqiyatlari urug‘/avlod doirasida umumiy yashab qolish ehtimolini oshirishga xizmat qiladi). O‘zaro altruizm nazariyasi (agar yordam beruvchi tomonidan qilingan say-harakatlar o‘zaro munosabat jarayonida olinadigan foyda bilan qoplansa, prosotsial xulq tabiiy tanlanishga ijobiy ta’sir

qiladi). Shunday qilib, prosotsial xulq o‘zaro altruizm sifatida tavsiflanadi. Sotsiobiologik nazariya prosotsial xulqning saqlanib qolishini uning biologik turning yashab qolishiga yordam berishi bilan izohlaydi.

Shaxsiy yondashuv biologik yondashuvga o‘xshash tarzda, prosotsial xulqni individning yordam ko‘rsatishga moyilligi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi. Biroq bu moyillik har doim ham genetik jihatdan belgilangan deb hisoblanmaydi (garchi bu imkoniyat inkor etilmasa ham), balki ijtimoiy o‘rganish natijasi sifatida talqin qilinadi [Ильин, 2013: 35–40].

Ushbu yondashuvda prosotsial xulq-atvor shakli sifatida altruizmga oid shaxsiy nazariyalarning ikki asosiy turi mavjud:

1. Ayrimlari altruistik xulqni kayfiyatlar va emotsional holatlar orqali tushuntiradi;

2. Boshqalari esa altruizmni shaxsning barqaror individual xususiyatlari bilan izohlaydi.

Shaxsiy nazariya prosotsial xulqni insonning emotsional holati natijasi sifatida talqin qilishga urg‘u beradi va u ijobiy his-tuyg‘ular olish bilan bog‘liq bo‘lib, keyinchalik bu holat boshqalarga yordam berishga qaratilgan individual xohish va harakatlarda ifodalanadi [Ильин, 2013: 35–40].

Umuman olganda, prosotsial xulqning mohiyatini tushuntirishda o’zgalarga yordam berish motivlarini tahlil qiladigan bir qator modellar ajratiladi. Inson boshqa insonga yordam beradi, chunki u adolatni tiklashni xohlaydi; boshqaning azobini ko‘rish orqali yuzaga kelgan o‘zining salbiy holatini yengillashtirish uchun yordam ko‘rsatadi; moddiy va ijtimoiy resurslar (pul, xizmatlar, axborot, muhabbat) almashinuvi maqsadida yordam beradi; ijtimoiy va axloqiy identiklikka tahdidni bartaraf etish uchun yordam beradi; yordam berishdan ichki zavq olish uchun yaxshilik qiladi; yoki empatiya his qilgani uchun yordam ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ильин Е.П. Психология помощи. Альтруизм, эгоизм, эмпатия. – СПб.: Питер, 2013. – 304 с.

2. Шамионов Р.М. Психология социального поведения личности. – Саратов: Изд-во Саратовского государственного университета.

3. Реан А.А., Шевченко А.О., Ставцев А.А., Кузьмин Р.Г. Подходы к изучению просоциального поведения и альтруизма // Российский девиантологический журнал. – 2026. – Т. 6. – № 1. – С. 92–104.

4. Eisenberg N., Mussen P.H. The Roots of Prosocial Behavior in Children. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989.

5. Carlo G., Randall B.A. The Development of a Measure of Prosocial Behaviors for Late Adolescents // Journal of Youth and Adolescence. – 2002. – Vol. 31. – No. 1. – P. 31–44.